Ijtimoiy davlat islohotlarida, jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "... mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish; kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish; ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish; ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish" muhim dasturil amal bo'ldi [1].

Darhaqiqat, statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kungacha mamlakat miqyosida 30 yoshdan yuqori bo'lgan jami 6,5 millionga yaqin xotin-qizlar bilan muloqotlar o'tkazildi. Respublika va hududiy shtablar tomonidan muloqotlar natijalari chuqur tahlil qilinib, ma'lumotlar shakllantirildi. Jumladan, ularning: 8,5 foizi ishsiz ayollar, 4,3 foizi tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun kredit so'ragan ayollar, 2,6 foizi nogironligi bor ayollar, 2,5 foizi kasb-hunarga o'qish xohishini bildirganlar, 2,4 foizi boquvchisi yo'q va yolg'iz onalar, 2,2 foizi uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj ayollar, yotoqxonalarda, noturar joylarda yashab kelayotgan ayollar ekanligi aniqlandi.

Bu ko'rsatkichlar ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ijtiomiy himoyani takomillashtirishni taqozo qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bozor munosabatlarida aholining ish bilan bandligini shakllantirishning boshqa tamoyillari ham amal qiladi. Bunda davlat mavjud mehnat resurslaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish borasidagi monopoliyaga har qanday da'vogarliklardan voz kechadi. Shu asosda boshqa tamoyil – erkin tanlab olingan bandlik tamoyili, qonuniy daromadlar manbaiga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholining ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmaslik huquqi yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining mehnat qilish qobiliyati (ishchi kuchi)ni tasarruf etish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'lib, uni hech kim mehnat qilishga majbur qilishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Biroq bularning barchasi davlat mehnatga layoqatli aholidan foydalanish va mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabni tartibga solish jarayonlariga aralasha olmasligini yoki aralashishi kerak emasligini anglatmaydi. Ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talabni muvofiqlashtirish murakkab demografik vaziyatda O'zbekiston uchun boshqa mamlakatlarga qaraganda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ushbu muammoga respublikamizda boshqa davlatlarga nisbatan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston shunday mamlakatlar jumlasiga kiradiki, hukumat ish bilan bandlikni ta'minlash yuzasidan yangi va qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish, mavjud ish o'rinlarini modernizatsiyalash, ayniqsa, qishloq joylarida yashayotgan aholining turmush darajasini yaxshilash masalalarini doimo diqqat markazida tutib turibdi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo'lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik muammosi – ijtimoiy muammo. Shunday ekan, eng yuqori darajadagi aholining demografik jihatlari va undan samarali foydalanish hamda jamiyat rivoji uchun yo'naltilganligi ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Aholining ish bilan bandligi muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi. Qanchalik darajada insonning ijtimoiylashuv darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik darajada inson kapitalining sifat darajasi o'zgarib boradi.

Akademik Q. Abdurahmonov tomonidan "... ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va, umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi"[2], – deb ta'kidlanadi.

Aholining ish bilan bandligi va ishsizlik – ikkita qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi tushuncha bo'lib, aholining bandlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik shuncha kam bo'ladi va aksincha. Aholining ish bilan to'liq bandligi ishsizlikning umuman mavjud bo'lmasligini nazarda tutmaydi, chunki ishsizlikka to'liq barham berishning deyarli iloji yo'q. "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" nomli ilmiy ish va bir qator boshqa ishlanmalar muallifi ingliz olimi J. Keynsning (1883–1946-yy.) fikriga ko'ra, aholining ish bilan to'liq bandligi taxminan 3 foiz darajasidagi ishsizlikni nazarda tutadi. Shunday holatda ishsizlik iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bugungi kunda boshqacha qarashlar ham mavjud bo'lib, fikrimizcha 5-6 foiz darajasidagi ishsizlik iqtisodiyotdagi optimal bandlikka mos keladi, deb hisoblaymiz. Boz ustiga, jamiyatda ishsizlik ma'lum "tabiiy" darajasining mavjudligi nafaqat normal, balki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan holat sifatida qabul qilinadi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ma'lumki, ishga joylashtirish miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim A. I. Rofe ushbu tushunchaga o'z munosabatini bildirib, "Ish bilan bandlik — bu mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mavjudligi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan, daromadli mashg'ulot bilan band bo'lishidir"[5], — deb ta'rif bergan.

Shuningdek, yetuk iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov, L. O. Ilinalar ushbu tushunchaga: "Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin"[6], — deb ta'rif berganlar. Mazkur ta'riflardan farqli o'laroq, bizning fikrimizcha ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Aholining ish bilan bandligi mehnat unumdorligining oshishiga va, o'z navbatida, milliy boylikning ham o'sishiga xizmat qiladi, ayni paytda ishsizlikning salbiy oqibatlari shundaki, u nafaqat ishlab chiqarishning pasayishiga, balki pirovardida qashshoqlikning boshlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi olim Artur Ouken tomonidan, ishsizlikning tabiiy darajadan ortishi bilan yalpi milliy mahsulot hajmining ortda qolishi o‘rtasidagi nisbat, ya’ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1 foizga yuqori bo‘lsa, yalpi milliy mahsulot hajmi 2,5 foiz kamayadi yoki 2,5 foiz yalpi milliy mahsulot yo‘qolishi e’tirof etilgan. Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 ga teng. Ushbu nisbat iqtisodiy nazariyada Ouken qonuni deb nom oldi. Shu nisbatga asoslanib, yo‘qotilgan yalpi milliy mahsulotning mutlaq qiymatini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, ishsizlikning tabiiy darajasi – bu “normal” davrdagi me’yoriy inflyatsiya va barqaror o‘sish sur’atlari bilan ifodalangan bo‘lib, uning ta’rifi – anchagina murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi hamda mazkur ko‘rsatkichni hisoblab chiqish uchun “normal ishlovchi iqtisodiyot” modelini yaratish kerak bo‘ladi.

Ishsizlik tushunchasiga aniqlik kiritishda ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik iqtisodchi olimlar M. N. Dudin: “Ishsizlik – bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisaki, unda faol, mehnatga layoqatli aholining bir qismi o‘zi bajarishi mumkin bo‘lgan ishni topa olmaslik holatidir”[7], — deb ta’riflasalar, boshqa bir iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov esa: “Ishsizlik – iqtisodiyotdagi shunday bir hodisaki, unda iqtisodiy faol aholining bir qismini ishsizlar tashkil etadi”, — deb izohlaydilar.

Bizning fikrimizcha, ishcizlik – bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo‘lmagan miqdoridir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, globallashuv sharoitida, gap tabiiy ishcizlik to‘g‘risida emas, balki uning ijtimoiy maqbul darajasi, ya’ni kadrlar qo‘nimsizligi va ish izlash davomiyligini, shuningdek ishchi kuchining demografik darajasini (ishsizlikning bo‘sh ish joylari miqdoriga nisbati) va ijtimoiy tanglikni ham hisobga oladigan darajasi to‘g‘risida borishi lozim.

Demografik vaziyatning barqarorlashuvi ish bilan bandlikning ushbu xususiyatlarini tahlil qilishning dolzarbligi aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlarning doimiy dinamikasi bilan belgilanadi

Demografik jihatlar, harakatlanishning zamonaviy muammolari, shuningdek, aholi siyosatining tahlili, xususan, hududlardagi demografik vaziyat, shuningdek, inson kapitalining rivojlanishini o‘rganishda tahlil qilinadi hududlarida aholining hayot darajasi va sifati demografik muammolar va turmush darajasi tahlil qilinadi). Shu bilan birga, ish bilan band aholining demografik xususiyatlarini tahlil qilishga yetarli darajada e’tibor berilmayapti (bandlarning yosh tarkibini o‘zgartirishning mintaqaviy jihatlari bilan birga) muammolarni yuzaga keltirayotganligi hech kimga sir emas.

Ma’lum darajada, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalar aholining ish bilan bandligi darajasi dinamikasida va ish bilan bandlarning yosh tarkibi bo‘yicha chuqur hududlar o‘rtasida farqlarning mavjudligi, qolaversa, zamonaviy sharoitda ish bilan bandlarning o‘rtacha yoshi oshayotganligi, ya’ni iqtisodiyot tarmoq va sohalarida pensionerlar mehnat faoliyati uchun shart-sharoitlar ya’ni ish haqini 100% miqdorda berilishi, ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan va madaniyatga sezilarli darajada oshdi.

Bu demografik rivojlanishning tabiiy natijasi, aholi tarkibida yoshlarning salmog‘ining ko‘pligi va keyingi paytlarda ayrim sohalarda pensionerlar mehnat faoliyati, ya’ni yosharish tendensiyalarining bevosita ustunligi, shu bilan birga, qarish tendensiyasining namoyon bo‘lishi, albatta, mehnat bozorida talab va taklifning shakllanishi va nomutanosibligiga ta’sir qiladi, ularning rivojlanishi ko‘p jihatdan mamalakatimizdagi 14 ta hudud mehnat bozorlarining holatiga bog‘liqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma’lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, yoshlar ishsizligini kamaytirish bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zlagan nutqida “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasi” ekanligini, milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat, – ekanligini alohida qayd etdi. Shu bilan birga, kelgusida mamlakatimiz “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorligi ta’kidlanib, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish taklifi ilgari surildi.

Ish bilan bandlik sohasidagi muammolarning umumiyligiga qaramay, mintaqaviy mehnat bozorida ro'y berayotgan jarayonlarda xotin-qizlar yoshlarning ish bilan banligida muammolarning mavjudligi o'rganilishi kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Bu demografik omillar mehnat bozorida nomutanosibliklarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi muhim sabablarga, ish bilan bandlikning demografik xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Mehnat bozorining hozirgi davrdagi hududiy segmenti har bir hududlardagi ishga yollanuvchilarning o'ziga xos tarkibi, ya'ni xotin-qizlar va yoshlarning ulushini hisobga oladi. Ular aholining ijtimoiy-demografik tarkibi, yoshi, jinsi hamda ishga yollanuvchilarning kasbiy malakaviy tarkibi bilan belgilanadi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash borasida "O'zbekiston–2030" Strategiyasining 25-maqsadida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash"da qo'yidagi masalalarga e'tibor qaratilganligi masalaning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi:

- gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish;
- jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish [8].

Darhaqiqat, keyingi yetti yilda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi.

Xususan, koronavirus pandemiyasining aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko'makka muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo'nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi – "Temir daftar", ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishlicha "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari hayotga tatbiq etildi.

Xususan, Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish yo'nalishida:

- Joriy yilning 6 oyida kam ta'minlangan oilalardagi ilmga intilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xotin-qizlar.uz platformasi orqali 2022-yilda test sinovlari natijasiga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan 1 982 nafari oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi. 2023-yil uchun tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari qoshidagi komissiyalar tomonidan 50 668 nafar talabgorlarning hujjatlari qabul qilindi, buning natijasida mezon talablari asosida 38 702 nafar talabgorlarga tavsiyanoma berildi.
- Egallagan kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 507 nafar xotin-qizlar 2022-yilda oliy ta'lim muassasalariga kontrakt to'lovi asosida talabalikka qabul qilindi. 2023-yilda tuman (shahar) komissiyalari tomonidan 12 563 nafar talabgorlarning hujjatlari qabul qilindi hamda mavjud mezon talablari asosida 11 993 nafar talabgorlarga tavsiyanoma berildi.
- 14 100 nafar magistraturada o'qiyotgan talaba qizlarning 153,4 mlrd. so'm kontrakt to'lovlari to'lab berildi.
- OTMlarda o'qiyotgan 133 973 nafar talaba xotin-qizlarga 7 yil muddatga 1 243,9 mlrd. so'm miqdorida foizsiz ta'lim krediti berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi PQ-300-son qaroriga asosan mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berishni yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimi yaratildi.

Xotin-qizlar faollari tomonidan yil boshidan 414 184 ta muammo aniqlanib, shundan 399 942 ta (96,6%) muammo bartaraf etildi.

2023-yil boshidan shu kunga qadar 235 mingdan ziyod xotin-qizlar bandligi ta'minlandi. Shundan 106 123 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 43 124 nafari jamoat ishiga jalb etildi.

133 084 nafari kasb-hunarga va tadbirkorlikka, shundan 60 390 nafari Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida o'qitildi.

Ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 141 249 nafar ayollar 2 451,2 trln. so'm kredit bilan ta'minlandi.

21 810 nafar xotin-qizlarga 90,6 mlrd. so'm, shundan "Ayollar daftari"da turgan 16 298 nafar og'ir ijtimoiy vaziyatdagi xotin-qizlarga 70,244 mlrd. so'm subsidiya ajratildi.

Respublikada faoliyat olib borayotgan 4 218 nafar kasanachi xotin-qizlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Ular tomonidan 20 218 nafar doimiy, 19 813 nafar xonadonlarga ish berish orqali jami 40 091 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlangan.

889 ta mahallada xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkmmlash markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Olis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlaydigan tadbirkorlik subyektlari uchun 50,0 mln. so'm miqdorida grant loyihalariga tanlov e'lon qilindi.

Tanlovga 20-iyuldan hujjatlar qabul qilish boshlandi va 20-avgustga qadar davom etadi.

"Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirlgan ishlarni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari va maslahatchilari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari, sektorlar rahbarlari ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolari bo'yicha "Temir daftar"ga, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishlicha "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish va ularning farovonligini oshirish uchun shaxsan mas'ul etib belgilandi.

Ayollar muammolarini tizimli hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijasida bugun davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari oddiy odamlar bilan doimiy muloqot o'rnatib, ularni qiynayotgan masala va muammolarni zudlik bilan bartaraf etish, bu orqali odamlarning bugungi hayotidan rozi bo'lib yashashini ta'minlash yo'nalishida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, xalqimiz, shu jumladan, xotin-qizlar turmush darajasi va sifatini oshirish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

## XULOSA

Xotin-qizlarni kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash dasturida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- har yili tasdiqlanadigan kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakani oshirishga oid davlat buyurtmasida kasb-hunarga o'qitiladigan xotin-qizlar ulushini yildan yilga oshirib borish;
- xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish hamda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ko'maklashish maqsadlarida subsidiyalar ajratish;
- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarga mehnat qurollari bilan ta'minlash uchun subsidiyalar ajratish;
- ishsiz xotin-qizlarni bo'sh hamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlarida bandligini ta'minlashga ko'maklashiladi. Bunda 2022-yilda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish orqali ularning bandligiga ko'maklashish loyihalar ko'lami kengaytiriladi.

Yunusobod mahallalarida quyidagilarni nazarda tutuvchi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz:

- har bir mahallada "Xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari" va klasterlarni tashkil qilish;
- xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mahallalarda markazlar ochish choralarini ko'rish;
- tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko'maklashish;
- xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish va biznesga jalb qilish.

Natijada ushbu dastur doirasida ayollarni mahallabay tizimi orqali bandligini tashkil etishni takomillashtirishni yo'lga qo'yish va ularni bandligini ta'minilash, ishsizlikni kamaytirish, kambag'allikni qisqartirish kabi muammolarga yechim topiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. "O'zbekiston–2030" Strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. 25-maqsad.lex.uz
2. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zR FA "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 257-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 12-fevraldagi selektr yig'ilishidagi ma'ruzasi.
4. PF–5938-son Farmoniga muvofiq 2020-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikai Prezidentining Qarori.
5. Экономика труда: учебник /А. И. Рофе.-2-е. – М.: КНОРУС, 2011. с. 159
6. Экономика труда: учебник /И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.:Издательство Юрайт, 2012. с. 123
7. Экономика и социология труда: учебное пособие /Н. В. Лясников, М. Н. Дудин, Ю. В. Лясников. – М.: КНОРУС, 2012. с.
8. Экономика труда: учебник /И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.: Издательство Юрайт, 2012. – с. 123.
9. "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-aprel PQ-5094-son qarori. www.lex.uz


IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.